



ISAJON SULTONNING “TOSHKELINCHAK” HIKOYASIDA FOLKLORIZMLARNING O‘RNI

F.A. Qurbonova

QDPI. katta o`qituvchisi

F.Y. Jumanboyeva

QDPI. 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: *Yozma adabiyot va folklor munosabatlarini o‘rganish, ijodkor faoliyatida xalq og‘zaki ijodining ta‘sirini tadqiq etish ijodkor individual uslubi va badiiy mahorati bilan bog‘liq hodisa sifatida adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan sanaladi. Maqolada Isajon Sulton badiiy uslubining o‘ziga xosligi asar qahramonlari nutqida duo, olqish, qarg‘ish kabi folklorizmlarni qo‘llashda, maqol va matallar, turg‘un iboralar kabi oddiy; analitik, sintezlashgan va stilizatsiya xarakteridagi murakkab folklorizmlardan foydalanishda ko‘rinishi asoslangan.*

Kalit so‘z: *folklor, folklorizm, analitik folklorizm, rivoyat, doston, uslub, syujet, motiv, badiiy psixologizm.*

Folklor va yozma adabiyot orasidagi munosabat murakkab va ko‘pqirrali ekanligini professor B.Sarimsoqov shunday izohlaydi: “folklor va yozma adabiyot munosabati o‘z ichiga ijodkor asaridagi oddiy folklorizmdan tortib ijodiy metod munosabati, xalqchillik, milliylik, ijodkorning folklordan ijodiy foydalanish yo‘llari va usullari, u yoki bu san‘atkor mahoratining yo‘nalishi va unda folklor an‘analarining ta‘siri kabi masalalari bilan birgalikda badiiy shakl sohasidagi o‘zaro ta‘sir masalalarigacha qamrab oladi”. Bu holatni turkiy yozma adabiyotning ilk namunasi bo‘lgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan tortib, bugungi zamonaviy so‘z san‘atkorlarining ijodiyoti misolida ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton ijodida milliy ma‘naviy merosimizni aks ettirish, folklor unsurlaridan foydalanish, folklor motivlari vositasida qiziqarli sujetlar tanlash adibning uslubiy o‘ziga xosliklarini belgilaydi.

Isajon Sulton hikoyalarining badiiy qurilmasi, bayon uslubida xalq ertaklari, afsonalari, rivoyatlariga xos bayonchilik, soddalik, qolaversa, ertak qahramonlariga o‘xshash jabrlangan, sodda, oddiy odamlarning turmush tashvishlari, ularning o‘y-xayollari o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb etadi. Masalan, “Avazboyluk tantilar”, “Bibi Salima”, “Shamolli kecha”, “Bog‘i Eram”, “Manzil”, “Qish ertaklari”, “Ona yurt sog‘inchi”, “Toshkelinchak”, “Yusuf va Zulayho”, “Xun”, “Yog‘och kovush” kabi qator hikoyalarida bu badiiy xususiyatlar yarqirab ko‘rinish bergan deyish mumkin.

Yozuvchining “Toshkelinchak” hikoyasi O‘rta Osiyo xalqlari orasida qachonlardir bo‘lib o‘tgan muhabbat rivoyati haqidadir. Adib bu rivoyatning yoyilib ketishini asarda chiroyli chizgilar bilan beradi. Nazarning qishloq chetidagi ziyoratgoh sanalgan qadim tosh ustida o‘z xayollari bilan band bo‘lib kun o‘tkazishini ta‘riflar ekan: “Ziyoratgoh yonidan katta yo‘l o‘tgan, bir yog‘i O‘shdan Ergashtonga, bu yog‘i Qamchiq dovoni oralab,



Toshkentdan Qozog'istonning bepoyon cho'llariga qarab ketadi. Turli-tuman uzun-qisqa arobalar qatnovi bir zum bo'lsin tinmaydi", – deydi. Ushbu jumladan anglash mumkinki "Toshkelinchak" hikoyasi eski rivoyatning badiiy talqini sifatida yozma adabiyotga olib kirilgan. Hikoya sujetiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hikoyaning har bir qatiga milliy ruh, an'analar va urf-odatlardan ta'sirlangan holda mazmun singdirilgan. Hikoyada folklorizmlardan foydalanish, avvalo, yozuvchi uchun sujetlar, mavzular, motivlar manbai sifatidagina emas, balki ijodkor estetik ideali va dunyoqarashini gavdalantiruvchi vosita sifatida ko'rinadi. Ayni paytda, yozuvchining ijodiy o'ziga xosligini ham belgilaydi. Yozuvchi ijodida folklorizmlar xalqimizning mafkurasi va hayot tarzini, ruhiyatini ochib berish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

"Toshkelinchak" hikoyasida dastlab sodda va to'pori qishloq yigiti tasvirlangan bo'lsa, voqealar rivoji davomida bu to'pori yigit ishqqa muhtalo bo'ladi. Ishaq uning xarakterini mutlaqo o'zgartirib yuboradi.

Nazarning Ummugulsumni sevib qolishi, unga ko'nglini ochishi, rad javobini olishi va xarakteridagi ijobiy o'zgarishlar xalq og'zaki ijodidagi devning parilar yoki malikalarga oshiq bo'lishi kabi ertak motivlariga o'xshab ketadi. "Qarang-a, qanaqa bezori bola edi, ko'ngil qo'ydi-yu bosildi-qoldi, – deyishardi kishilar".

Asarda Ummugulsumning boshqaga turmushga chiqib ketishi, bu sababdan Nazarning odamovi bo'lib qolishi, keyinchalik uning ko'chalarda ko'rinmay qolishi odamlar nazariga tushadi. Qizning qarindosh-urug'lari Nazarga undan voz kechish talabini qo'yganda Nazarning " – Axir, men sen bilan bitta bo'lib qolganman-ku, qanday qilib ketay, – dermish. – Axir, ko'zim sendan boshqani ko'rmaydi-ku? Shafaqni rangiga qaragam ham seni ko'raman. Oyga qaragam ham, quyoshga qaragam ham seni ko'raman. Qayga boqsam, sen borsan", deya bergan javobida muhabbatning kuchi insonni qay ko'ygaga solganiga e'tibor qilsak, ikkinchi tarafdin adibning bu obrazni qadim sharq adabiyotidagi Majnun obrazi bilan sintezlashtirganini ko'rish mumkin. Hikoyada yozuvchi xalq rivoyatlaridan ham unumli foydalangan. Asar voqealari davomida Ummugulsumning boshqa kishiga turmushga chiqishi sababdan Nazarning devonasifat bo'lib qolishi, qishloqdan uzilib uzlatga tushishi kabi holatlar xalq rivoyatlaridagi detallar orqali tasvirlanadi. "Qishloqning yuqori qismida tevaragida jingul-u chakalaklar o'sgan Toshkelinchak degan qarovsiz bir joy bor edi. U asli tosh emas, suyganiga yetolmasdan, odamlardan qochib borib toshga aylanib qolgan bir kelinchak der edilar. Nazar o'sha joyda tunni o'tkazibdi".

Isajon Sulton bu hikoyasi qahramoni Nazar qiyofasida asrlar osha adabiyotimizda yashab kelayotgan Majnunni aks ettirgan. Uning ham Layli ishqida ado bo'lgani kabi hikoya qahramonining Ummugulsum hajrida kuyib, o'rtanib yonishini tasvirlagan. Hikoyada "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostoni sujetiga mos keluvchi o'rinlar ham ko'zga tashlanadi.

Epik sujetning muhabbat mojarosi zamiriga qurilishi, qahramonning o'z muhabbati yo'lidagi intilishlari asosida voqealar rivojini ta'minlash sof xalq eposiga xos poetik tasvir uslubidir. Xalqona epik tasvir uslubi yozma adabiyotning shakllanishi va yozma nasr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi.



Hikoyada oddiy folklorizmlar xalq maqol va matallari, yumuq iboralari, og‘zaki nutq uchun xos ifoda hamda oborotlardan ham mahorat bilan foydalanilgan. Jumladan, adib Nazarning Ummugulsumga eng mos juft bo‘la olishini tasvirlar ekan, xalq matal va iboralarini matnga ustalik bilan singdirib yuboradi: “Tegirmonga tushsa butun chiqadigan, shaxt-u shiddati jismiga sig‘may toshib turgan Nazarga tegmasdan kimga ham tegardi? Yo‘qni yo‘ndiradigan, borni bor qiladigan bunday yigitgan qaysi qiz ham yo‘q derdi? ” Yoki Ummugulsumning amma xolalarining Nazarga aytgan gaplarida (“– Hoy, jon bolam, qo‘ying, keting endi, – debdi xotinlarning yoshi kattarog‘i. – Nima qilasiz bechorani qiynab? Og‘zidan qora qonini keltirdingiz-ku qiz sho‘rlikni!”) Ummugulsumning to‘yida aytilgan tilaklarda (“Borgan joyingga toshday tushgin. Toshday tushgunu toshday qolgin”) og‘zaki nutq uchun xos ifodalar berilgan.

Hikoyaning bir qator o‘rinlarida analitik folklorizmlar ham uchraydi. Ular qahramon ruhiy holatini ifodalashda qo‘l kelgan. Jumladan, Ummugulsumning boshqa bir yigit bilan to‘yi bo‘lgan kunda hofizlar tilidan quyidagi mashhur qo‘shiq yangraydi:

To‘ylar muborak,
Ey yori jonim,
To‘yona bo‘lsin-a,
Tan birla jonim...

Qo‘shiq sharhida muallif quyidagilarni yozadi: “Tavba, bitta jon-u bir tanim boriydi, shuni endi sen olaqol, deganimi bu? Bu dunyoda kezib yurishimning hech ma‘nosi qolmadi, har ikkisi ham to‘yingga to‘yona bo‘laqolsin, deganimi bu? Mazkur fikrlardan so‘ng yozuvchi odamlarning uzoq yillardan buyon miriqib eshitib yurganlari, kelin va kuyov davraga kirib kelishlari bilan ularning oldilariga tushvolib berilib raqs tushganlari – bu qo‘shiqning aslida juda dardli qo‘shiq ekanligini anglab qolishganini yozar ekan, qo‘shiq matnini davom ettiradi:

Oydek yuzingni,
Ko‘rgoni keldim,
Hasrat o‘tida -yo
Kuygoni keldim....

Hasrat-u g‘amga to‘la bu qo‘shiq to‘yda qatnasha olmayotgan oshiq yigit Nazar tilidan aytilayotgandek to‘yxona uzra taralardi.

Xulosa qilib aytganda , yozuvchining asosiy yutug‘i shundaki, qahramonlar ruhiy holatini tasvirlashda ortiqcha tafsilotlarga berilmaydi va voqealarni hayotiy tasvirlaydi. Hikoyada har bir detal, har bir so‘z asar g‘oyasini, mazmun-mohiyatini ochish uchun xizmat qiladi. Adib asar tafsilotlarini shundayligicha emas, badiiyat talablari doirasida tasvirlashga harakat qiladi. Badiiy asarning qiymatini belgilashda undagi har bir katta-kichik tasvirda yozuvchining dalillash mahorati ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Isajon Sulton hikoyadagi har bir detalga ijodiy yondashadi va sayqal beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Исажон Султон. Тошкелинчак. / Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги матбаа нашриёт уйи, 2017. – Б. 381.
2. Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологияси масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. – 4-сон. – Б.37-45.
3. Agzamovna, Kurbanova Feruza. "Adabiy talimda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning amaliy ahamiyati." Oriental Art and Culture III (2020): 368-372.
4. Agzamovna, Kurbanova Feruza. "Study of Modern Uzbek Written Literature and Folklore." EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION 2.5 (2022): 142-145.
5. Kurbanova, Feruza. "Classic traditions and folklore motivations in the stories of Isajan Sultan." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.3 (2021): 492-495.
6. Agzamovna, Kurbanova Feruza. "Artistic speech is a factor of creating the hero's spirit (on the stories of Isajan Sultan)." ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH 10.5 (2021): 37-39.